

**«INSON HUQUQLARINI TAMINLASHDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIM
MAZMUN MOHIYATI»**

Akbarov Faxriddin Vasliddin o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Respublikamizda fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi bevosita qonun hujjatlari bilan kafolatlab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 40-moddasida har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada mazkur huquqning mustahkamlab qo'yilgani Bosh qomusimizning xalqaro huquq normalariga to'la mos ekanligidan ham dalolat beradi.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, tibbiyot, huquq, Konstitutsiya, profilaktika.

Annotation: The issue of public health in our country is one of the priorities of state policy, and the right of citizens to health is directly guaranteed by law. In particular, Article 40 of our Constitution states that everyone has the right to qualified medical care. The fact that this right is enshrined in the Constitution also testifies to the fact that our Constitution is in full compliance with the norms of international law.

Keywords: health, medicine, law, constitution, prevention.

KIRISH

Konstitutsiya qoidalarining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 1996 yil 29 avgustda **“Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”**gi Qonun qabul qilingan. Hozirgi kungacha mazkur Qonunni yanada takomillashtirish maqsadida bir necha marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ushbu Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Qonunda fuqarolarning tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi huquqlari ham belgilab berilgan.

Iste'molchi huquqlari nimalardan iborat?

Fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi

□ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari sog‘liqni saqlash borasida daxlsiz;

□ Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar sog‘lig‘i saqlanishini ta‘minlaydi;

□ fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat’i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishi.

Xalqaro shartnomalarga muvofiq kafolatlangan

□ O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi.

Sog‘liqni saqlashda fuqarolar huquqlari teng

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, sog‘liqni saqlashda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdadirlar.

O‘z vaqtida va aniq axborot olish

□ sog‘liqqa ta‘sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to‘g‘risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to‘g‘risida o‘z vaqtida va aniq axborot olish.

Fuqarolarning tibbiy-ijtimoiy yordam olishi

□ kasal bo‘lib qolganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo‘yish-davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lashni o‘z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish.

Qo‘shimcha tibbiy xizmatlardan foydalanish

□ Fuqarolar o‘zlarini ixtiyoriy ravishda tibbiy sug‘urta qildirish asosida, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag‘lari, o‘z shaxsiy mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qo‘shimcha tibbiy va boshqa xil xizmatlardan foydalanish huquqi.

Maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta‘minlanish

□ fuqarolarning ayrim toifalari protezlar, ortopedik va moslama buyumlar, eshitish apparatlari, harakatlanish vositalari va boshqa maxsus vositalar bilan imtiyozli tarzda ta‘minlanish huquqi.

Tibbiy ekspertizadan o‘tish

□ fuqarolar ixtisoslashgan sog‘liqni saqlash, muassasalarida tibbiy ekspertizadan o‘tish huquqi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017 yil 1 apreldagi PQ-2863-sonli qaroriga muvofiq xususiy tibbiyot muassasalari 2022 yilning 1 yanvariga qadar barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etilgan bo‘lib, bunda bo‘shagan mablag‘lar, shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, sog‘liqni saqlashda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdan foydalanadilar.

Fuqarolar sog‘liqqa ta’sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to‘g‘risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to‘g‘risida o‘z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega.

Kasal bo‘lib qolganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda va boshqa hollarda fuqarolar profilaktik, tashxis qo‘yish-davolash, kuch-quvvatni tiklash, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordami va boshqa xil yordamni, shuningdek bemorlarni, mehnatga layoqatsiz va nogiron kishilarni boqish-parvarishlash yuzasidan ijtimoiy chora-tadbirlarni, shu jumladan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lashni o‘z ichiga oladigan tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda o‘tgan davr mobaynida sog‘liqni saqlash sohasida keng qamrovli isloholotlarni amalga oshirish jarayonida ko‘pgina normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sog‘liqni saqlash sohasining normativ-huquqiy bazasi yaratilishiga erishildi. Qabul qilingan qonun hujjatlari esa sog‘liqni saqlash sohasini huquqiy tartibga solishga hamda fuqarolarning sog‘liqni saqlash huquqini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Drovnenkova M.A. Buyuk Britaniyada sog‘liqni saqlash tizimi: afzalliklari va kamchiliklari / "AiF. Salomatlik. 2019 "№ 31, 23–27 b.
2. Klyzhina E.A., Vasilenko I.A., Zaltsman A.G. Milliy sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha / "Sog‘liqni saqlashni boshqarish" No 2, 2015. - 61 b.
3. Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 8-fevral 28-son
4. www.lex.uz O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami 2017-yil 838